

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI AKADEMIK LITSEYI – INTELLEKTUAL SALOHIYAT
MASKANI**

Samandarov Jasurbek Javlonbekovich

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch Davlat Universiteti akademik litseyi
oliy toifali ingliz tili fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti akademik litseyining tashkil topishi, rivojlanish bosqichlari, ta'lim sifati, pedagogik salohiyati, o'quvchilarning yutuqlari, tarbiyaviy faoliyat, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, xalqaro hamkorlik aloqalari va istiqboldagi rejalar yoritilgan. Maqola litseyning zamonaviy o'quv muhitidagi o'rni va uning yosh avlodni intellektual va ma'naviy jihatdan tarbiyalashdagi rolini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: Akademik litsey, Urganch Davlat Universiteti, iqtidorli o'quvchilar, zamonaviy ta'lim, pedagogik salohiyat, fan olimpiadalari, raqamli texnologiyalar, tarbiyaviy ishlar, hamkorlik, ta'lim sifati.

Аннотация: В данной статье рассмотрены история создания и этапы развития академического лицея при Ургенчском государственном университете имени Абу Райхона Беруни, его образовательный потенциал, достижения учащихся, роль воспитательной работы, применение современных образовательных технологий, международные связи и перспективы дальнейшего развития. Материал демонстрирует значимость лицея в формировании интеллектуально и духовно развитого поколения.

Ключевые слова: Академический лицей, Ургенчский государственный университет, одарённые ученики, современное образование, педагогический потенциал, предметные олимпиады, цифровые технологии, воспитательная работа, сотрудничество, качество образования.

Annotation: This article explores the history, development stages, educational potential, student achievements, upbringing activities, implementation of modern teaching technologies, international collaborations, and future goals of the Abu Rayhon Beruni Academic Lyceum under Urgench State University. The article highlights the lyceum's role in fostering intellectually and morally developed youth in a modern educational environment.

Keywords: Academic lyceum, Urgench State University, gifted students, modern education, pedagogical capacity, subject olympiads, digital technologies, educational upbringing, cooperation, education quality.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni maqsadli tayyorlash borasidagi siyosiy qarashlari, ta’lim sohasidagi islohotlarning chuqurlashuvi bilan uyg‘un holda respublikamizda akademik litseylar tarmog‘ining faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti akademik litseyi bugungi kunda nafaqat Xorazm viloyatida, balki butun respublikada o‘zining yuqori ilmiy salohiyati, boy pedagogik an‘analari va zamonaviy yondashuvlari bilan alohida o‘rin egalla- moqda. Ushbu maqolada ushbu ta’lim dargohining shakllanishi, hozirgi kundagi faoliyati va istiqboldagi vazifalari haqida so‘z yuritiladi.

Akademik litsey 2000-yillarning boshlarida Urganch Davlat Universiteti qoshida tashkil etilgan bo‘lib, u dastlab iqtidorli o‘quvchilarni yuqori bosqichga tayyorlash, ularning ilmiy salohiyatini rivojlantirish, oliy ta’limga sifatli abituriyentlar tayyorlash maqsadini ko‘zlagan. Dastlabki bosqichda bir necha yo‘nalishlar bo‘yicha o‘quvchilarga ta’lim berilgan bo‘lsa, bugungi kunda aniq fanlar, ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlar, tillar, biologiya va kimyo, shuningdek, axborot texnologiyalari bo‘yicha ta’lim berilmoqda. Litsey Abu Rayhon Beruniy nomi bilan yuritilishi bejiz emas – bu ulug‘ alloma nomi ostida ilm-ma’rifatga sadoqatli yoshlar tarbiyalanmoqda.

Litsey o‘z faoliyatini zamonaviy binoda olib boradi. Unda barcha zarur sharoitlar yaratilgan: interaktiv doskalar, zamonaviy laboratoriyalar, kutubxonalar, kompyuter xonalari, sport zali, konferensiyalar zali va yotoqxona mavjud. Har bir fan bo‘yicha maxsus jihozlangan sinflar, laboratoriyalar o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash imkonini beradi. Shuningdek, sinf xonalari multimedia vositalari, tezkor internet va raqamli resurslar bilan ta’minlangan.



Litseyning eng katta boyligi – bu albatta, pedagoglar jamoasi. Litseyda ko‘plab oliy toifali, ko‘p yillik tajribaga ega ustozlar faoliyat yuritadi. Ular orasida fan nomzodlari, o‘rta maxsus va professional ta’limi a’lochilari, viloyat va respublika darajasidagi metodistlar mavjud. Har bir

o‘qituvchi o‘z faniga mehr bilan yondashadi, zamonaviy metodlarni o‘zlashtirib, dars jarayonini jonli va qiziqarli tarzda olib boradi. Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Atabek Rahimov boshchiligidagi pedagogik jamoa akademik litsey talabalarini har tomonlama barkamol, yuksak intellektual qobiliyatli qilib, umumbashariy qadriyatlar va milliy vatanparlik ruhida kamol toptirmoqda. Ta’lim muassasasi pedagog xodimlarining ilmiy salohiyati tobora oshib borayotganligi

tahsinga sazovor. So'nggi oylarda tarix fani o'qituvchisi Tajiyeva Umida, matematika fani ustози Qilichev Farhod, kimyo fani o'qituvchisi Masharipov Azamat kabi o'qituvchilarning ilmiy ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilib, falsafa fanlari doktori (PhD) ilmiy darajasiga erishganlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. O'qituvchilarning bunday salmoqli yutuqlari jamoa pedagogik kengashlarida sharaf bilan e'tirof etib boriladi.

Litsey o'quvchilari har yili viloyat, respublika va hatto xalqaro darajadagi fan olimpiadalari, tanlovlar, grantlar va loyihalarda munosib ishtirok etib, yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. Xususan, so'nggi yillarda o'quvchilar biologiya, fizika, matematika, tarix, ingliz tili kabi fanlardan O'zbekiston fan olimpiadasida faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdi. Bu yutuqlar litseyda ta'lim sifati yuqoriligidan, o'quvchilar bilan olib borilayotgan izchil ishlar samarasidir. Har yili Abu Rayxon Beruniy nomidagi UrDU akademik litseyining 90 foizidan ortiq talabarlari milliy va til bilish darajasi to'g'risidagi sertifikatlarni qo'lga kiritib, o'z bilim va qobiliyatlarini namoyon etishadi. Litsey aksariyat talabalarining Xalqaro IELTS sertifikatini C1 darajasida qo'lga kiritishi o'quvchilarning yuksak bilim darajasini ifoda etadi. Bu ham viloyat va respublika miqyosida yuksak natijalarni qayd etib kelayotgan fidoyi ingliz tili fani o'qituvchilarining sharaflı mehnati samarasidir. Ingliz tili fani o'qituvchisi Samandarov Jasurbek viloyatning eng yaxshi ingliz tili o'qituvchisi tanlovida muvaffaqiyatli qatnashib, faxrli birinchi o'rinni egallagan. Shuni e'tirof etish lozimmi, ta'lim muassasasi talabalarining Oliy ta'limga qamrab olinishi (88-90%) ham respublikadagi eng yuqori ko'rsatkichlardan birini tashkil etadi.



Litseyda faqatgina bilim emas, balki tarbiya masalasi- ga ham alohida e'tibor qaratiladi. Har haftalik tarbiyaviy soatlar, psixologik maslahatlar, sport musobaqalari, kitobxonlik haftaliklari, teatr va kino tadbirlari orqali o'quvchilarda ma'naviy barkamollik, yurtga sadoqat, milliy g'urur va fuqarolik burchini his qilish kabi fazilatlar shakllantiriladi. Ustoz va o'quvchilar o'rtasida iliq munosabatlar, do'stona muhit hukm suradi.

So‘nggi yillarda litseyda interfaol metodlar, STEAM ta’limi, loyiha asosida o‘qitish (project-based learning), Case-study yondashuvi, elektron resurslardan foydalanish kabi metodlar joriy qilinmoqda. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoni hal qilish ko‘nikmalari, tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Darslarda simul yatsiya, debat, roliklar asosida o‘rgatish kabi amaliy mashg‘ulotlar ko‘paymoqda.

Litseyda o‘quvchilarni olimpiada, test, ijodiy ishlar, nutqiy kompetensiya va ilmiy tadqiqotga tayyorlash uchun muntazam fan to‘garaklari, individual va guruh darslari yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, “Yosh biologlar”, “Iqtidorli tarixchilar”, “Ingliz tilini mukammal o‘rganamiz”, “Yosh kimyogarlar” kabi to‘garaklar faol ishlamoqda. Bu to‘garaklar o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Har yili litsey bitiruvchilarining 88-90 foizi O‘zbekiston va xorijdagi nufuzli oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kiradi. Ular orasida Toshkent davlat yuridik universiteti, O‘zbekiston milliy universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Urganch davlat universiteti, Toshkent tibbiyot akademiyasi, Xitoy, Turkiya, Rossiya OTMlarida tahsil olayotganlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bu litsey ta’lim tizimining muvaffaqiyatidir. Litsey Urganch Davlat Universiteti bilan bevosita integratsiyada ishlaydi. Univer- sitet professorlari va ilmiy xodimlari bilan darslar, ma’ruzalar, master-klasslar o‘tkaziladi. Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar, mahalliy muassasalar, xorijiy elchixonalar bilan ham hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa o‘quvchilarning dunyoqarashi kengayishiga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar bugungi kunda ta’lim sifatining ajralmas qismiga aylangan. Litseyda har bir o‘quvchi kompyuter, planshet va mobil ilovalar orqali darslarda faol ishtirok etadi. Google Classroom, Moodle, Zoom, Microsoft Teams kabi platformalar orqali darslar onlayn tarzda ham olib boriladi. Elektron kutubxona, test bazalari va virtual laboratoriyalar o‘quvchilar uchun ochiq. Bularning barchasi o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Litseyda har yili “Kitobxonlik haftaligi”, “Navro‘z bayrami”, “Ustoz va murabbiylar kuni”, “Til bayrami”, “Ma’naviyat kuni” kabi o‘nlab tadbirlar tashkil qilinadi. O‘quvchilar she’rxonlik, sahna ko‘rinishlari, insholar, viktorinalar, badiiy kechalar orqali o‘z iqtidorini namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu tadbirlar yoshlarning ijtimoiy faolligi va milliy g‘ururini oshirishga xizmat qiladi.

Ta’limda “uchlik” tamoyili – o‘qituvchi, o‘quvchi va ota-onalar hamkorligi juda muhim. Litseyda bu tizim mustahkam yo‘lga qo‘yilgan. Har chorakda ota-onalar bilan umumiy yig‘ilishlar, shaxsiy uchrashuvlar va maslahatlar o‘tkaziladi. Bundan tashqari, ota-onalar ishtirokida ochiq darslar, tarbiyaviy seminarlar ham tashkillashtiriladi. Ular farzandlarining bilim olish jarayonida bevosita ishtirok etadi.

Bugungi kunga kelib, Abu Rayhon Beruniy nomidagi akademik litsey Xorazm viloyatidagi eng nufuzli ta’lim muassasalaridan biriga aylangan. Uning mezonlari –

yuqori ko'rsatkichlar, iqtidorli bitiruvchilar, innovatsion usullar va samarali boshqaruv tizimidir. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan bir necha marta faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan.

2020-yildan keyin O'zbekiston ta'lim tizimidagi o'zgarishlar litsey faoliyatiga ham yangicha turtki berdi. Jumladan, fanlar kesimida kompetensiyaviy yondashuv, yangi test tizimlari, STEAM mezonlariga tayyorlov, shaxsiy portfoliolar, differensial yondashuvlar kabi innovatsion mexanizmlar joriy etildi. Bu o'zgarishlar litsey jamoasi tomonidan tezda o'zlashtirilib, o'quvchilarning natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Akademik litsey O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo'ljallangan "Ta'lim sifatini oshirish" bo'yicha dasturiga to'liq mos ravishda faoliyat olib bormoqda. Har yili o'quv dasturlari yangilanadi, ustozlar uchun malaka oshirish kurslari o'tkaziladi. O'quvchilarni tanqidiy fikrlash, jamoaviy ishlash, loyiha qilish kabi ko'nikmalar bilan qurollantirish orqali ta'lim sifatiga kompleks yondashuv ta'minlanadi.

Litsey faoliyati mahalliy va respublika ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib boriladi. Xorazm viloyati televideniyesi, "Xorazm haqiqati", "Urganch ovozi", "To'maris" gazetalarida litsey o'qituvchilari va o'quvchilari haqida maqolalar e'lon qilinmoqda. Shuningdek, litseyning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari – Facebook, Telegram, YouTube – orqali keng auditoriyaga faoliyat targ'ib qilinadi.

Litsey jamoasi oldiga yaqin yillarda quyidagi maqsadlarni qo'ygan:

- Fan laboratoriyalarini xalqaro standartlarga moslashtirish;
 - IELTS, SAT, CEFR kurslarini kengaytirish;
 - Akademik yozuv va ilmiy tadqiqot madaniyatini joriy qilish;
 - Fanlar bo'yicha onlayn platformalar va elektron darsliklar yaratish;
 - Talabalar xalqaro olimpiadalarga tayyorlanadigan maxsus markaz tashkil etish
- Bu rejalar kelajak avlod ta'limini yanada sifatli qilishga xizmat qiladi.

Litsey faoliyati bilan tanishish uchun ko'plab davlat va nodavlat tashkilotlar, xorijiy mehmonlar tashrif buyuradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi vakillari, viloyatdagi o'rta ta'lim muassasalari xodimlari, nufuzli universitet rektorlari litsey faoliyatini yuqori baholab kelmoqda.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti akademik litseyi bugungi kunda nafaqat viloyat, balki respublika miqyosida peshqadam, zamonaviy, ilg'or yondashuvga asoslangan ta'lim maskani sifatida e'tirof etiladi. Bu dargohda bilimli, ma'naviy yetuk, Vatanga sadoqatli, zamonaviy texnologiyalarni puxta egallagan yosh avlod kamol topmoqda. Litsey — bu intellektual taraqqiyot markazi, millatning kelajagi bo'lgan yoshlarga ishonchli tayanchdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot strategiyasi” farmoni. – Toshkent: Adolat, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “Ilm-fan va ta’lim tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ–5847-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Fan va ta’lim vazirligining rasmiy sayti: <https://edu.uz>
5. Urganch Davlat Universiteti rasmiy sayti: <https://urdu.uz>
6. Xorazm viloyati xalq ta’limi boshqarmasi ma’lumotlari. – 2023-yil statistik byulleten.
7. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar” – Ilmiy-uslubiy jurnal. – Toshkent, 2021, №2.
8. Soliyeva D. “Akademik litseylar – oliy ta’limga tayyorlov bo‘g‘ini” // Xalq ta’limi. – 2022, №4. – B. 34–39.
9. Qodirov M. “Pedagogik salohiyat va ta’lim sifati o‘zaro bog‘liqligi” // Ilm va hayot. – 2023, №1. – B. 20–25.
10. Beruniy A. “Ilm va tafakkur haqida” – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘qituvchi va murabbiylar faoliyatini rag‘batlantirish” to‘g‘risidagi farmoni. – 2021-yil 1-oktabr.
12. Global Education Monitoring Report, UNESCO, 2023. – <https://unesco.org>
13. Mamatqulov S. “Raqamli ta’lim: imkoniyat va muammolar” // Ma’rifat gazetasi, 2022-yil, 10-iyun soni.
14. Litsey o‘qituvchilari tomonidan tayyorlangan ichki hisobotlar va statistik ma’lumotlar. – Urganch, 2023.
15. “Zamonaviy o‘quv muhitini yaratish” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.